

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.14 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MAMADOV NASIMBEK SHUXRATJON O‘G‘LI

**YOSHLAR QALBIDA HARBIY VATANPARVARLIK TUYG‘USINI
YUKSALTIRISHDA AMIR TEMUR VA JALOLIDDIN MANGUBERDI
FAOLIYATI TARG‘IBOTINING ROLI**

**09.00.05 – Milliy g‘oya va targ‘ibot texnologiyalari
(Falsafa fanlari)**

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертацияси доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Mamadov Nasimbek Shuxratjon o'g'li

Yoshlar qalbida harbiy vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirishda Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi faoliyati targ'ibotining roli 3

Мамадов Насимбек Шухратжон угли

Роль пропаганды деятельности Амира Темура и Джалолиддина Мангуберди в воспитании чувства военного патриотизма в сердцах молодежи 21

Mamadov Nasimbek Shuxratjon ogli

The role of promoting the activities of Amir Temur and Jalaluddin Manguberdi in instilling a sense of military patriotism in the hearts of young people..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.14 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MAMADOV NASIMBEK SHUXRATJON O‘G‘LI

**YOSHLAR QALBIDA HARBIY VATANPARVARLIK TUYG‘USINI
YUKSALTIRISHDA AMIR TEMUR VA JALOLIDDIN MANGUBERDI
FAOLIYATI TARG‘IBOTINING ROLI**

**09.00.05 – Milliy g‘oya va targ‘ibot texnologiyalari
(Falsafa fanlari)**

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2023.1.PhD/Fal923. raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fs-ik.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.Ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bo‘tayev Usmonjon Xayrullayevich
siyosiy fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xakimov Nazar Xakimovich
falsafa fanlari doktori, professor

Mamadaliyev Shavkatbek Olmosboyevich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:


Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.01.14 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 15-yanvar soat 14.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi. Tel.: 246-02-24 faks: (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 3-yanvarda tarqatildi.

(2024-yil « » dagi -raqamli reyestr bayonnomasi).



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mamlakat xavfsizligini ta'minlash, ijtimoiy taraqqiyotni saqlash, Vatan sarhadlarini himoya qilishning mafkuraviy ahamiyati oshib bormoqda. Yoshlar ongida harbiy vatanparvarlik ruhi, sadoqat va fidoyilikni tarbiyalash maqsadida videofilmlar, xalqaro tanlovlar tashkil etilmoqda. Biroq ba'zi mamlakatlarda millatlararo nizo, diniy toqatsizlik, irqchilik, kiber zo'ravonlik avj olmoqda. Shu bois, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni harbiy xizmatga tayyorlash va harbiy faoliyati natijalarini rag'batlantirishning takomillashgan targ'ibot texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, davlatlararo murosa madaniyatiga erishishda texnologik taraqqiyotning Vatan himoyasini ta'minlashdagi o'rni, Vatan himoyasi yo'lida jon fido qilgan qahramonlarning hayotini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ayni paytda, yoshlarda Vatanga sadoqat, mafkuraviy hushyorlik, jismoniy chaqqonlik, harbiy xizmatga ruhan tayyor bo'lish, xavfli vaziyatlarda Vatan manfaatlarini himoya qilish malakalarini shakllantirishning takomillashgan targ'ibot texnologiyalarini yaratishni ilmiy asoslash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda millat qahramonlarning harbiy mahoratini targ'ib etish, mamlakatning mudofaa qudratini mustahkamlash, harbiy texnologiyalarning yangi avlodini yaratishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston yoshlarini armiya xizmatiga tayyorlashning takomillashgan texnologiyalari yaratilmoqda, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida yoshga doir harbiy musobaqalar tashkil etilmoqda, chaqiriqqacha harbiy xizmat tizimidagi islohotlarning ko'lami oshmoqda va yoshlarni harbiy xizmat vazifasini bajarish jarayonida burch hamda mas'uliyatini oshirishning mexanizmlari takomillashmoqda va ular harbiy xizmat vazifasini bajarish jarayonidagi faoliyati uchun moddiy hamda ma'naviy qo'llab-quvvatlanmoqda. Biroq ba'zi yoshlarda mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga nisbatan befarqlik kuzatilmoqda. Shu bois, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning targ'ibot texnologiyalarini takomillashtirish, ularning ongiga «Vatanga xizmat qilish – Oliy burch» g'oyasini singdirishning targ'ibot texnologiyalarini yangilash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O'RQ-458-sonli «Mudofaa doktrinasi to'g'risida» va 2001-yil 11-maydagi O'RQ-211-II sonli «Mudofaa to'g'risida»gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-sonli «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida», 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-sonli «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat

jihadan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-sonli «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-sonli «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi»ni tasdiqlash to'g'risidagi hamda O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti to'g'risidagi Nizomi va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga barcha davrlarda alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Alpomish, Shiroq, Tumaris, Dada Ko'rkut dostonlarida yigitlarning jasorati, ayollarning sadoqati bayon etilgan. Platonning «Davlat», Aristotelning «Axloqi kabir» asarida mamlakatning mudofaa qudrati odamlarning harbiy tayyorgarligi va yuksak vatanparvarligi bilan bog'liqligi asoslangan. Makiavellining «Hukmdor», Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asarida davlat boshlig'ining harbiy mahorati askarlar uchun ibrat ekanligi ochib berilgan. Akademik V.V. Bartold¹, S.V.Yushkov² Amir Temurning harbiy yurishlarining sabab va oqibatlarini asoslagan.

O'zbekistonda I.M.Mo'minov³, O.I.Eshonov, X.S.Samatova, Sh.Z.O'razayev⁴, B.A.Ahmedov, N.A.Ahmedov, H.Karomatov, H.B.Boboyev, A.X.Saidov, J.T.Toshqulov⁵ mamlakatning qudrati harbiy tayyorgarlik bilan bog'liqligini Amir Temur hayoti misolida asoslaganlar.

Tarixchi an-Nasaviyning «Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti»⁶, Kamol Matyoqubovning «Sulton Jaloliddin Manguberdi (hayoti tafsiloti)»⁷ va «Tarixi jahonkushoy»⁸ nomli yirik tarixiy asarlarda Jaloliddin Manguberding Chingizxon bosqiniga qarshi kurashining tafsilotlari yoritilgan.

¹ Бартолд В.В. Улугбек и его время. Соч. Т.И. ч.2. – М., 1964. – С. 38.

² Yushkov S.V. История государства и права. Учебник для студентов высших учебных заведений, обучающихся по специальности «Правоведение». – М.: МГУ, 1985. 4. Ч. 1. – С. 49-50.

³ Mo'minov I.M. Amir Temurning O'rta Osiyo xalqlari tarixidagi o'rni va roli. – Toshkent: Fan, 1968.

⁴ История государства и права Узбекистана. Часть I. Учебник. – Ташкент: O'qituvchi, 1969. – С. 39-58.

⁵ Ahmedov B.A. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – 430 b.; Ahmedov B.A. Amir Temurni yod etib. – Toshkent, 1996. – 367 b.; Ahmedov N.A. Amir Temur: rivoyat va haqiqat. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1996; Boboyev H.B. Amir Temur va temuriylar saltanati. – Toshkent: Kamalak, 1996. – B. 71-124; Saidov A.Q., Toshqulov J.T. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. – Toshkent: IIV Akademiyasi nashriyoti, 1995; Amir Temur Ko'ragon «Tuzuki Temuriy». – Toshkent, 1999; Amir Temur Ko'ragon. Zafarnoma. – Toshkent, 2000; Qissai Temur («Malfuzoti Temuriy»). – Toshkent, 2000. – 1107 b.

⁶ Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti / Kamol Matyoqubov tarjimasi / – T.: O'zbekiston, 2006. – B. 11.

⁷ Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti / Kamol Matyoqubov tarjimasi / – T.: O'zbekiston, 2006. – 384 b.

⁸ Juvayniy Xo'ja Alouddin Atomalik. Tarixi Jahonkusho // Qo'lyozma O'zbekiston FA SHI. – № 610. – 261 b.; Toshov N.I. «Tarix-i dжахангуша» Ала ад-дина Джувайни – ценный источник по истории Центральной Азии XII-XIII вв. Tarix fan. nom. diss. ... avtoref. – Toshkent, O'zbekiston FA SHI, 2004. – 22 b.; Juvayniy Xo'ja Alouddin Atomalik. Tarixi Jahonkusho (Jahon fotihi tarixi) / Mas'ul muharrirlar: H.Boltaboyev, M.Mahmudov. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2015. – 504 b.

U.M.Abilov, J.S.Ramatov, B.E.Ergashev, Q.Usmonov, B.X.Ne‘matov, V.N.Kaloshin, R.K.Abdullayev, Ch.R.Nasriddinov milliy mafkuraning millatni birlashtiruvchi kuch sifatidagi ahamiyati va yoshlarning harbiy xizmatga borishining vatan oldidagi burch ekanligini ochib berganlar. R.Y.Qurbonov «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g‘oyaning o‘rni»⁹, E.T.Qalqonov «Vatanparvarlikning shakllanishi va amal qilishining ijtimoiy qonuniyatlari»¹⁰, K.X.Usmonov «O‘zbekiston xalqi ma‘naviy-axloqiy merosida harbiy-vatanparvarlik g‘oyalarining talqini»¹¹, Sh.B.Xonimov «Yoshlar tashabbuskorligi va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning madaniy-mafkuraviy omillari»¹², A.R.Shoxakimov «Harbiy xizmatchilarda milliy ruhni yuksaltirish omillari»¹³ mavzusida ilmiy tadqiqot olib borganlar.

Mazkur ilmiy tadqiqotlarda harbiy-vatanparvarlikning mohiyati, mazmuni, amal qilish mexanizmlari va ijtimoiy ahamiyati ochib berilgan. Ushbu dissertatsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning takomillashgan texnologiyalarini ishlab chiqishga harakat qilingan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Fuqarolik jamiyatini qurishning huquqiy, ma‘naviy asoslari» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Amir Temur va Jaloliddin Manguberding harbiy mahorati misolida yangi O‘zbekiston yoshlarining harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning takomillashgan targ‘ibot texnologiyalarini yaratishning mafkuraviy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

buyuk sarkardalarning bunyodkorlik ishlari va harbiy vatanparvarligi mamlakat sarhadlarini himoya qilishida namoyon bo‘lishini asoslash;

O‘zbekiston yoshlarini vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ma‘naviy-mafkuraviy, ijtimoiy-huquqiy jihatlarini ochib berish;

Amir Temurning hayoti va faoliyatida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ibratli jihatlarni asoslash;

Amir Temur va Jaloliddin Manguberding vatanparvarlik jasoratini targ‘ib qilish orqali yoshlarning harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirishning targ‘ibot texnologiyalarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Yangi O‘zbekistonning ichki va tashqi xavfsizligini ta‘minlashga yo‘nalgan ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy jarayonlar olingan.

Tadqiqotning predmetini yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy yo‘nalishlari tashkil etadi.

⁹ Qurbonov R.Yu. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g‘oyaning o‘rni. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2011. – 25 b.

¹⁰ Qalqonov E.T. Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishining bog‘liqlik qonuniyatlari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2011. – 22 b.

¹¹ Usmonov K.X. O‘zbek xalqi ma‘naviy-axloqiy merosida harbiy vatanparvarlik g‘oyalarining talqini. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2017. – 27 b.

¹² Xonimov Sh.B. Yoshlar tashabbuskorligi va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning madaniy-mafkuraviy omillari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2023. – 22 b.

¹³ Shoxakimov A.R. Harbiy xizmatchilarda milliy ruhni yuksaltirish omillari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2022. – 23 b.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda analiz, umumlashtirish, mavhumlikdan konkretlikga o'tish, tarixiylik, umumiy o'zaro aloqadorlik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

harbiy vatanparvarlikni tarbiyalashga yo'nalgan xalq dostonlarining mohiyatini o'rganish, buyuk sarkardalarning harbiy san'atini yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish yoshlarning axborot tarmoqlarida tarqatilayotgan buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashini shakllantirishning ilmiy, tarixiy, falsafiy targ'ibot texnologiyalari ekanligi asoslangan;

yoshlarning «Xalq va armiya – bir tanu jondir» ezgu g'oyasi atrofida birlashishi ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, tinchlik va totuvlikni asrab-avaylashning zarurligini singdirish yoshlar-armiya-davlat munosabatlarida oshkoralikni shakllantirish omili ekanligi ochib berilgan;

zamonaviy urush falsafasining endogen va egzogen xususiyatlari o'zgarayotgan davrda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ishonitirish, rag'batlantirish va shaxsiy ibrat kabi usullardan foydalanishning davlat hamda jamiyat xavfsizligiga xizmat qilishning mezoni ekanligi dalillangan;

harbiy-ma'muriy sektorlar – hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, imkoniyati cheklangan yoshlar uchun Jaloliddin Manguberdi va Amir Temurning faoliyati aks ettirgan brayl alifbosidagi ko'razmali materiallar hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni joriy etish yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy targ'ibot texnologiyasi ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

millat qahramonlari hayoti, harbiy mahoratini o'rganish va ulardan ibrat olish, jismoniy va ma'naviy sog'lom yoshlar ongida harbiy vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash omili ekanligi Amir Temur hamda Jaloliddin Manguberding harbiy faoliyati tahlili asosida ochib berilgan;

zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari va harbiy texnologiyalarni bilish hamda ularni qo'llash malakalarini shakllantirish global tahdidlarga qarshi kurash texnologiyasi sifatida amal qilishi asoslangan;

ta'lim tizimida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlari, harbiy sohada avlodlararo vorisilikni ta'minlash, yangi avlod harbiylarini tayyorlashning yo'l xaritasiga amal qilishning ahamiyati aniqlangan va ulardan foydalanishning takomillashgan texnologiyalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularning respublika va xalqaro miqyosda o'tkazilgan konferensiyalarda muhokama qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, unda ilgari surilgan g'oyalardan harbiy-vatanparvarlarning yangi avlodini tarbiyalash, ijtimoiy faoliyatni maqsadli tashkil etishga yo'nalgan ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan g'oyalardan chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik tizimida, oliy harbiy ta'lim muassasalari, jumladan, «Temurbeklar maktabi» va «Jaloliddin Manguberdi» nomidagi harbiy-akademik litseylarda hamda harbiy-ma'muriy sektorlarda ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik jarayonlaridagi ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yoshlar qalbida harbiy vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirishda Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi faoliyati targ'ibotining roli mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

harbiy vatanparvarlikni tarbiyalashga yo'nalgan xalq dostonlarining mohiyatini o'rganish, buyuk sarkardalarning harbiy san'atini yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish ularni axborot tarmoqlarida tarqatilayotgan buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirishning ilmiy, tarixiy, falsafiy mezonlar bilan bog'liq texnologiyalar ekanligiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining «Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litsey faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaror loyihasini 4-bandini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2023-yil 14-iyul № 25/2579-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar, harbiy bilim yurtlarida Amir Temur va Jaloliddin Manguberding harbiy mahoratini o'rganish hamda ular jasoratidan ibrat olishga xizmat qilgan;

yoshlarning «Xalq va armiya – bir tanu jondir» ezgu g'oyasi atrofida birlashishi ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, tinchlik va totuvlikni asrab-avaylashning zarurligini singdirish yoshlar-armiya-davlat munosabatlarida oshkoralikni shakllantirish omili ekanligiga oid xulosalardan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazida «Temur tuzuklari»da vatanparvarlik tushunchasi va uni Amir Temur hayotida tutgan o'rni hamda Jaloliddin Manguberdi jasoratini yoshlar qalbiga singdirish bo'yicha o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishda hamda targ'ibotchilar uchun mo'ljallangan qo'llanmani ishlab chiqishda foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil 10-iyuldagi № 02-02-27-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlar ongiga vatanparvarlik g'oyalarini singdirish va mustahkamlash bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning samaradorligini oshirishga erishilgan;

zamonaviy urush falsafasining endogen va egzogen xususiyatlari o'zgarayotgan davrda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ishonirish, mashq qildirish va mustaqil ishlash, kuzatish, rag'batlantirish va shaxsiy namuna kabi usullari davlat va jamiyatning harbiy xavfsizligiga xizmat qilishning mezoni ekanligiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi «Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litsey faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-184-sonli Qaror loyihasining 2-bandi ijrosini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining 2023-yil 6-iyul 6776-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar, «Temurbeklar maktabi», «Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi» o'quvchilarining mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlislohotlar mohiyatini tushunishiga xizmat qilgan;

harbiy-ma'muriy sektorlar – hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, imkoniyati cheklangan yoshlar uchun Jaloliddin Manguberdi va Amir Temurning faoliyati aks ettirgan brayl alifbosidagi ko'razmali materiallar hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan joriy etish yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy targ'ibot texnologiyasi modeli ekanligiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida yoshlarga Jaloliddin Manguberdi hamda Amir Temurning faoliyati aks ettirgan brayl alifbosidagi ko'rgazmali materiallarni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 3-iyul 04-02/601-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar, maktabgacha ta'lim muassasalarida «Ertaklar yaxshilikka etaklar» shiori ostida o'yinli tadbirlarni tashkil etish va ularda afsonaviy qahramonlar obrazlarini yaratishga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-nazariy konferensiyalardagi ma'ruzalarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, (3 ta xorijiy, 4 ta respublika jurlallarida), shuningdek, respublika konferensiyalarda 4 ta, xalqaro konferensiyalarda 4 ta tezis nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ushbu dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, 8 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 122 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, tadqiqotning aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlarning soni va hajmi asoslangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Yoshlar qalbida vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirishning nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlanib, unda buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy merosida vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlikning namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi tarixiy jarayonlar tadqiq etilgan hamda ularning O'zbekiston yoshlarini vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ma'naviy-mafkuraviy, ijtimoiy-huquqiy asoslari hamda ahamiyati hamda yoshlarda vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik tuyg'usini oshirish borasida xorijiy davlatlarning tajribalarining mohiyati ochib berilgan.

Bizning fikrimizcha, yoshlarning vatanparvarligini shakllantirishda mamlakatdagi mafkuraviy jarayonlar ta'sir etadi. Ular ongida daxldorlik tuyg'usini shakllantirib, burch va mas'uliyatini oshiradi. Harbiy xizmatchilarning ongu

tafakkuriga Vatan himoyasi sharaflı va muqaddas burch ekanini, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish uchun mas'uliyat tuyg'usini chuqur singdirishga xizmat etadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ona yurtga mehri va sadoqatini oshirishga yanada ko'proq ahamiyat berishimiz kerak»¹⁴, zero, milliy qadriyatlarga, ma'naviyat va mafkuraga bo'lgan tahdidlar, yot g'oyalarni singdirishga bo'layotgan urinishlar kuchayib borayotgan sharoitda yoshlarning mafkuraviy immuniteti kuchaytirilib, ularning ta'lim-tarbiya va bilim olishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqot ishida «vatanparvarlik»ning mohiyati, mafkuraviy ahamiyati ochib berilgan.

Bizningcha, «Vatanparvarlik» kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydi. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o'z Vatani bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu Vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi. Vatanparvarlik davlat qurilishining ma'naviy asosidir. Vatanparvarlik jamiyat taraqqiyoti, shaxsning faol fuqarolik pozitsiyasi, o'z Vatani fidokorona xizmat qilishga tayyorligi uchun muhim ichki safarbar resurs sifatida namoyon bo'ladigan oliy tuyg'udir.

Harbiy vatanparvarlik tushunchasiga – alohida e'tibor, har bir fuqaroning Vatanga xizmat qilishdagi o'rni va rolini chuqur anglashi, harbiy xizmat talablarini bajarish uchun yuqori shaxsiy mas'uliyat, zarur fazilatlar va ko'nikmalarni rivojlantirish zarurligiga ishonch sifatida qaralgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflarida faoliyat olib borayotgan fuqarolarning o'zining xizmat vazifasini bajarishi harbiy burchiga sadoqat hisoblanadi.

Dissertatsiyada «Harbiy vatanparvarlik» tushunchasi hamda «Konstitutsiyaviy vatanparvarlik»ning farqli jihatlari ochib berilgan. Chunonchi, «Konstitutsiyaviy vatanparvarlik» ilk bor XX asrning 40-yillari oxirida Germaniyada qo'llanilganligi asoslangan. Nemis siyosatshunos faylasufi va siyosiy g'oyalar tarixchisi Ya.V.Myuller hozirgi vaqtda konstitutsiyaviy vatanparvarlikning yagona falsafiy huquqiy ta'rifi yo'qligini, tom ma'noda u fuqarolar ishonchi va davlat hokimiyati manbai bo'lib xizmat qilishini ta'kidlagan. Shu bois, «Konstitutsiyaviy vatanparvarlik» iborasi mohiyatiga ko'ra, demokratik konstitutsiyaning normalari, qadriyatlari va tartib-qoidalariga asoslanishi kerak degan qarashni ilgari surgan. Siyosatshunos D.Sternbergerning fikriga ko'ra, davlat qachonki o'z fuqarolarining Konstitutsiyada kafolatlangan erkinliklarini hamda mamlakat siyosiy hayotida ishtirok etishga doir huquqlarini hurmat qilsa va amalda ta'minlasagina muayyan odamlar jamoasi sifatida tirikdir.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasidagi nutqidan. 2022-yil 20-dekabr.

Bu nafaqat umumiy tarixiy o'tmish tufayli, balki shu holatda ham o'ziga xoslik hissini rivojlanib borishiga asos bo'ladi deb hisoblandi.

Tadqiqotda O'zbekiston yoshlarini vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ma'naviy-mafkuraviy omillari bilan bir qatorda mavjud muammolar tasniflangan. Fikrimizcha, agar o'zbek xalqining tarixiy merosi, buyuk sarkardalarning shaxsiy jasorati ma'naviy-mafkuraviy omil bo'lsa, quyidagilar bartaraf etilishi lozim bo'lgan muammolardir. Xususan:

respublika darajasida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini muvofiqlashtirish, yaxlit tizimga solish, mazkur ishlar ko'lamdorligi va natijadorligiga erishish chora-tadbirlari sust ekanligi;

yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarida davlat va nodavlat tashkilotlari, ta'lim muassasalari va keng jamoatchilik ishtirokining sustligi;


yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sohasida Qurolli tuzilmalar, davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va ta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlikning yo'qligi;

mahallalarda, ta'lim muassasalarida va harbiy qismlarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini prinsipial jihatdan yangicha yondashuv asosida yo'lga qo'yish hamda tizimga solishga hayotiy muhim ehtiyoj sezilayotganligida namoyon bo'ladi.


Tadqiqot ishida olib borilgan tahlillar, mamlakatimiz yoshlarida vatanparvarlikni shakllantirishda, asosan, ikki xil yondashuv mavjud ekanligini ko'rsatdi. Bularga, ma'rifiy (tushuntirish ishlarini olib borish, pand-nasihatlar/uslubiy ta'minot) va psixologik e'tiqodli yondashuv (uqtirish elementlaridan faol foydalanish)ni o'z ichiga oladi degan kontseptga ustuvorlik berilgan.

Dissertatsiyada bugungi murakkab davrda yoshlar masalasini davlat siyosati darajasida qarash uchun xorijiy davlatlarning bu boradagi ilg'or tajribasi qiyosiy tadqiq etilgan. Shunga asosan, geografik hamda strategik jihatdan MDH tarkibidan Rossiya Federatsiyasi va Belarusiya Respublikasi, AQSh, Buyuk Britaniya, GFR kabi davlatlarning yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi o'rganilgan va bu bo'yicha o'ziga xos jihatlar tadqiqot ishida ochib berilgan.

Masalan, bugun Rossiya Federatsiyasi Prezidenti va Mudofaa vazirligi tashabbusi bilan «YunArmiya» umumrossiya harbiy-vatanparvarlik harakati tashkil etilgan bo'lib, u mamlakatning 84 ta hududidagi o'quvchi yoshlar, harbiy-vatanparvarlik tashkilotlari, klublar va qidiruv guruhlarini qamrab olgan. Shu yo'nalishda Rossiya Federatsiyasi 2000-yillardan buyon o'rta ta'lim maktablarida harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yo'nalishidagi darsliklarni kiritish bo'yicha ishlar amalga oshirib kelib, hozirgi kunda 3.500 dan ortiq kadet yo'nalishidagi bilim yurtlari, 150 ta maxsus nomlangan va umumiy o'rta ta'lim maktablarida 51 mingdan ortiq harbiylashtirilgan sinflar, 50 dan ortiq harbiylashtirilgan oromgohlar yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bilan shug'ullanib kelishi ham bu boradagi tajribalarni o'rganish va o'zlashtirishga zaruriyat bor ekanligini ko'rsatmoqda (*1- va 2-chizmalar*).



1-chizma. «YunArmiya» umumrossiya harakatining tarkibiy tuzilishi¹⁵.




2-chizma. «YunArmiya» umumrossiya harakatining hududiy jamoatchiligi tarkibiy tuzilishi¹⁶.

Buyuk Britaniyada Mudofaa vazirligi tomonidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida tarbiyalash maqsadida bir qator o'quv dasturlari joriy qilingan bo'lib, ularning eng asosiysi «Qirollik kadetlar kuchi» tashkiloti hisoblanadi va mamlakatda uning jami 260 ta maktabi mavjud bo'lib unda 12 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan 125.000 dan ortiq yoshlar qamrab olingan (3-chizma).

¹⁵ <http://yunarmy.ru>

¹⁶ Yuqoridagi manbaa



3-chizma. Buyuk Britaniya Birlashgan Qirollik kadetlar kuchining tarkibiy tuzilmasi¹⁷.

Maktabning asosiy maqsadi o'quvchilarda liderlik sifatlarini rivojlantirish, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, turli vaziyatlardan chiqib ketish, chidamlilik va tirishqoqlik qobiliyatini shakllantirish hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, yoshlarda Qurolli Kuchlar ofitseri bo'lish va davlat xizmatiga tayyor turishga tayyorlash kabi maqsadlar ham mavjud. Uning tarkibida 20 ga yaqin kadet bo'linmalari yoshlarni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi hamda yuqorida ko'rsatib o'tilgan tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi¹⁸.

Tadqiqot ishida AQShda yoshlarga oid siyosati bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki, davlat bilan 14-19 yoshdagi yoshlar bilan o'zaro munosabatni belgilab beradigan yuvenal (balog'otga yetmagan yoshlarga doir) qonunchilik bilan tartibga solinganligi namoyon bo'ldi. Undan keyin esa u federal qonunchilik va har bir shtatda qabul qilinadigan qonunchilik aktlari bilan belgilab beriladi. Shtatlardagi qonunlar mustaqil qabul qilinadi va ba'zi jihatlari mamlakat federal qonunchiligiga mos kelmaydi. Aynan shu masalada «yoshlar» tushunchasi ham shtatlarda (13 yoshdan 29 yoshgacha) boshqacha belgilangan.

AQShda yoshlar taraqqiyoti dasturlari 15-24 yoshdagi aholi uchun mo'ljallangan. Ammo siyosatchilarning tan olishlaricha, USAIDning yoshlarga oid dasturlari kengroq yosh qatlamlari: 10 dan 29 yoshgacha bo'lgan aholini o'z ichiga olishi kerak. Shu bilan birga yoshlarga oid siyosat yoshlar taraqqiyoti doirasida shakllantirilgan ekan, xalqaro standartlar va Konvensiya tomonidan «bolalar» deb belgilangan. Ularga: 0-17 yosh guruhlari bilan ishlashda kompleks chora-tadbirlar muhimligini tan olish zarur hisoblanadi. Qolaversa, AQShda kasbiy reabilitatsiya, ta'lim olish va ishga joylashishga ko'maklashish harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoyasi hamda ijtimoiy moslashuvining eng asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. AQSh kongressi 1985-yildayoq «Harbiy xizmatchilarning ta'lim olishiga

¹⁷ Chizma muallif tomonidan tayyorlangan

¹⁸ <https://edutavel.ru/combined-cadet-force-ccf-obedinennyj-kadetskij-korpus>; https://en.wikipedia.org/wiki/Combined_Cadet_Force; <https://www.cranleigh.org/our-school/co-curricular/combined-cadet-force/>

ko'maklashishni tashkil etish to'g'risida»gi qonunni qabul qilgan bo'lib, unga ko'ra universitet, kollej yoki maktab kurslarida yoxud kasbiy-texnik tayyorgarlik yo'nalishlari bo'yicha kunduzgi yoki unga tenglashtirilgan sirtqi ta'limga haq to'lash uchun zarur pul mablag'ini to'lashni ko'zda tutadi. Mazkur dasturni moliyalashtirish harbiy xizmatchilarning pul ta'minoti hisobidan ixtiyoriy asosda ular harbiy xizmatni o'tayotgan bir yil davomida 100 dollar miqdorida amalga oshiriladi.

Tadqiqot yuzasidan, yana bir jihatga, vatanparvarlikni kuchaytirishda ijtimoiy himoya masalasi ham muhim ko'rsatkich ekanligiga urg'u berdik. Shu bois, qurolli kuchlardan bo'shatilayotganlarning ijtimoiy muhofazasi yo'nalishida Germaniya (Mahsus federal xizmat)¹⁹, Fransiya (Kasbiy mobillik missiyasi)²⁰, Qozog'iston («Qurolli kuchlar faxriylari» respublika ko'ngilli jamoat birlashmasi), Ukraina (faxriylar ishlari bo'yicha vazirligi)²¹ davlatlarida ham bir qator ijobiy tajribalar yo'lga qo'yilgan va buni qiyoslashga harakat qildik (1-jadval).

Germaniya	Fransiya	Qozog'iston	Ukraina
Qurolli Kuchlar safiga qabul qilinishidan to bo'shab fuqarolik ishiga joylashguniga qadar yordam ko'rsatish	Zaxiraga bo'shatilayotgan harbiy xizmatchiga ishga joylashish uchun lavozimlar rezervini taqdim qilish	Qurolli Kuchlar faxriylarning ijtimoiy holatini yaxshilash	Tibbiy xizmatlar
Zaxiraga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarga ish izlash va joylashishda yordam ko'rsatish	Harbiy xizmatchi va uning oila a'zolarini o'qitish	Qayta o'qitish va ish bilan ta'minlash	Ruhiy sog'lig'ini saqlash
Fuqarolik hayoti sharoitlaridagi yangi kasbga qayta tayyorlash, tugallanmagan kasb-hunar ta'limini yakunlash	Oliy o'quv yurtiga kirish uchun imtiyoz berish	Faxriylar hamda ularning oila a'zolariga o'z vaqtida sifatli tibbiy va huquqiy yordam ko'rsatish	Kasbiy moslashish va ish bilan ta'minlash
Fuqarolik hayotiga integratsiyalashish maqsadida fuqaro kasbiy tayyorgarligining kurslarida bepul o'qitish	Xususiy ishini tashkil etish uchun kredit ajraish	Faxriylarining uy-joy taqsimoti, davolash, sog'lomlashtirish	
Mamlakatning oliy o'quv yurtlarida tahsil olish huquqini beruvchi guvohnoma berish		Ijtimoiy holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish	

1-jadval. Xorij davlatlarining zaxiraga bo'shatilganlar uchun mavjud imtiyozlari to'g'risida ma'lumot²².

Dissertatsiyaning «**Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi faoliyatining yoshlarni ma'naviy kamol toptirishdagi roli**» deb nomlangan 2-bobida Amir Temurning hayoti va faoliyatida yoshlarni vatanparvarlik ruhiyada tarbiyalashga qaratilgan ibratli jihatlar, Temur tuzuklarida vatanparvarlik tushunchasi va Amir Temur hayotida ushbu tushunchaning tutgan o'rni hamda Jaloliddin Manguberdi

¹⁹ <https://www.gesetze-im-internet.de/svg/>

²⁰ https://lannuaire.service-public.fr/gouvernement/administration-centrale-ou-ministere_185155; <https://www.anocr.org/nos-objectifs/>

²¹ <https://mva.gov.ua/ua/pro-ministerstvo/polozhennay-pro-ministerstvo-u-spravah-veteraniv-ukrainy>

²² Jadval internet ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

jasoratini yoshlar qalbiga singdirish hamda ularda harbiy-vatanparvarlik tuygʻusini shakllantirishga oid ilmiy adabiyotlar tadqiq etilgan.

Maʼlumki, sobiq Ittifoq davrida oʻzining adolatli fikrlari bilan Amir Temur hayoti va faoliyatiga obʼektiv yondashish kerakligini, tarixiy haqiqatni aniq va toʻgʻri baholash shartligini aytgan akademik Ibrohim Moʻminovning 1968-yilda nashr etilgan «Amir Temurning Oʻrta Osiyo tarixida tutgan oʻrni va roli» risolasidan keyin oʻzbek matbuotida uzoq vaqtgacha Amir Temur siymosining ijobiy tomonlarini ochuvchi fikrlar koʻzga tashlanmadi. Olim oʻz asarida Amir Temurning Oʻrta Osiyo tarixida tutgan oʻrni va rolini toʻgʻri koʻrsatib, uning shaxsiga obyektiv yondashdi²³. Aynan dissertatsiya ishida Amir Temur axloqiy idealiga boʻlgan ehtiromning umumnazariy mohiyatida «Amir Temurni anglash – oʻzligimizni anglash demakdir» – degan gʻoya mujassam degan qarash ustuvor sifatida belgilandi.

Mustaqillik yillarida Sohibqiron shaxsiga boʻlgan munosabat davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Xususan, Amir Temur shaxsi, uning davlati, ichki va tashqi siyosat, Temuriylar hukmronligi xususida koʻplab ahamiyatga molik tadqiqot ishlar amalga oshirildi. Xususan, respublikamizda 1996-yil «Amir Temur yili» deb eʼlon qilinib, «Amir Temur xalqaro jamgʻarmasi» tashkil etildi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi, «Amir Temur» ordeni taʼsis etildi, YUNESKO tashabbusi bilan 1996-yil aprelda Parijda xalqaro ilmiy anjuman boʻlib oʻtdi, Amir Temur va Temuriylar davriga oid koʻplab tarixiy manbalar tarjima qilindi hamda hokazo. Shubhasiz, tarixiy haqiqatni qaror toptirish ishiga tarixchi va faylasuf olimlar ham oʻz munosib hissalarini qoʻshdilar.

Xususan, A.Oʻrinboyev, B.Ahmedov, D.Yusupova, U.Uvatov, A.Muhammadjonov, A.Ahmedov, O.Boʻriyev va boshqa koʻplab olimlar tomonidan tarixiy manbalar tarjima qilindi, eʼtiborga molik tadqiqotlar amalga oshirilgan. A.Ziyo, H.Boboyev, S.Xidirov, Sh.Oʻljayeva, D.Obidjonova, X.Fayziyev, B.Usmonov, O.Rahmatullayeva kabi koʻplab tadqiqotchilar esa oʻz izlanishlarida mavzu bilan bogʻliq koʻplab tarixiy va huquqiy jihatlarni ochib berishga muvaffaq boʻldilar²⁴.

